

**Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashining
2026-yil 26-yanvardagi 1-sonli yig‘ilish
bayonining 2-ilovasiga asosan
tasdiqlangan**

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining
2026-yil uchun mo‘ljallangan ISH REJASI**

№	Ustuvor vazifalar, o‘rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlar	Ijro muddati	Ijro uchun mas’ullar
I.Yil davomida amalga oshiriladigan tadbirlar			
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va xalqimizga murojaatida suv resurslari bo‘yicha belgilangan vazifalar, joylarda ularning ijrosi haqida tizim tashkilotlari bilan birgalikda joylarda seminarlar, davra suhbatlari tashkil etish.	Yil davomida	L. Muhammadnazarov, Sh.Suyunov
2.	Vazirlik tizim tashkilotlarida haftaning shanba kunlari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish, gazeta-jurnallarga obuna bo‘lish mavzularida seminarlar o‘tkazishda Axborot xizmati bilan hamkorlik qilish.	Yil davomida	L. Muhammadnazarov, Sh.Suyunov
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-124-son Farmoni talablaridan kelib chiqib, vazirlik va jamoatchilik kengashi o‘rtasida o‘zaro manfaatli ijtimoiy sheriklikni yanada rivojlantirish.	Yil davomida	L. Muhammadnazarov, Sh.Suyunov
4.	Tizimdagi barcha tashkilotlarda xodimlarga rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan mukofot pullari, yordamchi xo‘jaliklarda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari berilishini hududlar kesimi o‘rganish, tahlil qilish va vazirlik rahbariyatiga asoslantirilgan takliflar berish.	Yil davomida	L. Muhammadnazarov, Sh.Suyunov

5.	Korrupsiyaga qarshi kurashish, Vazirlik faoliyatida ochiqlik, qonuniylik, natijadorlik va sifatni o'rganib borish, rahbariyatga asoslantirilgan takliflar berish.	Yil davomida	L. Muhammadnazarov, Sh.Suyunov
6.	Suv xo'jaligi va uning tarmoqlarini rivojlantirishga oid hamda soha tarmoqlarida huquqiy munosabatlarni takomillashtirishga doir qonun va qonunosti normativ-huquqiy va idoraviy me'yoriy hujjatlarning loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, xulosa va takliflarini berish.	Yil davomida	Sh.Suyunov, J.To'xtayev
7.	"Suv – tekin emas" g'oyasini targ'ib qilish, suv behuda yo'qotilishining oldini olish maqsadida ichki ariqlarni betonlashtirish zarurligini fermerlar, suv iste'molchilari va jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish.	Yil davomida	L. Muhammadnazarov, Sh.Suyunov
8.	Yordamchi xo'jaliklarni rivojlantirish orqali yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha tizim tashkilotlarida olib borilayotgan ishlarni maqsadli o'rganish.		L. Muhammadnazarov, Sh.Suyunov
9.	Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'limlariga, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarining faoliyatiga aralashmaslik prinsiplariga qat'iy rioya qilgan holda Jamoatchilik palatasi va hududiy Jamoatchilik palatalari bilan o'zaro yaqin hamkorlikni amalga oshirish.	Yil davomida	L. Muhammadnazarov
10.	Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash bo'yicha vazirlik va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.	Yil davomida	L. Muhammadnazarov, J.To'xtayev
11.	Fuqarolar, NNTlari, ommaviy axborot vositalari vakillari va bloggerlarni so'z erkinligi, fuqarolarning axborot olish va tarqatish huquqini amalga oshirish, axborot erkinligi kafolatlarini ta'minlash bo'yicha muhokamalarga jalb etish hamda mazkur masalalarga oid amaliy takliflar ishlab chiqish.	Yil davomida	Sh.Suyunov, J.To'xtayev, T.Doliyev
12.	Qabul qilinadigan Davlat dasturida vazirlikka belgilanadigan vazifalar ijrosi joylarda qanday ijro etilayotgani borasida o'rganishlar o'tkazish. Natijalar haqida matbuot anjumani o'tkazib, jamoatchilikka axborot berish.	Yil davomida	L. Muhammadnazarov, Sh.Suyunov

II. Birinchi yarim yillikda amalga oshiriladigan tadbirlar			
13.	Kengash yig'ilishini o'tkazib, uning a'zolari o'rtasida vazifalar taqsimotini hamda Kengashning 2026-yil uchun Ish rejasini tasdiqlash.	Yanvar oyida	L. Muhammadnazarov
14.	Vazirlik faoliyatiga oid masalalar yuzasidan fuqarolar, NTTlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etish, shuningdek, ularni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha vazirlikka tegishli takliflar kiritish.	Fevral oyida	U.Mamarasulov
15.	Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rov o'tkazish.	Fevral oyida	Sh.Suyunov, U.Mamarasulov
16.	Islohotlar va davlat dasturlarining joylarda va sohalarda amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik monitoringini tashkillashtirish, ularni sifatli bajarish uchun qo'shimcha choralar ko'rish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, erishilgan ko'rsatkichlar, ijobiy o'zgarishlar va mavjud muammolar to'g'risidagi axborotni Suv xo'jaligi vaziriga muntazam kiritib borish.	Mart oyida	Sh.Suyunov
17.	Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini o'rganish, tajriba almashish.	Aprel oyida	L. Muhammadnazarov
18.	Vazirlik faoliyatining ochiqqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, takliflar ishlab chiqish.	May oyida	Sh.Suyunov, T.Doliyev
19.	Vazirlik faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	Iyun oyida	D.Alikulova
20.	Jamoatchilik kengashining birinchi yarim yillikdagi faoliyati yakunlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazish.	Iyun oyida	D.Alikulova
III. Ikkinchi yarim yillikda amalga oshiriladigan tadbirlar			
21.	Vazirlikning fuqarolar, NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorligini tahlil qilish, shuningdek, hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	Iyul oyida	Sh.Suyunov

22.	Aholi fikrini tizimli o'rganib borish, joylarda va suv xo'jaligi sohasida aholini, fuqarolik jamiyati institutlarini hamda jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, ularning yechimi bo'yicha Vazirga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar kiritish.	Avgust oyida	Sh.Suyunov
23.	Vazirlik va uning tizimidagi yoshlar bilan uchrashuvlar, muloqotlar o'tkazish, ularning takliflarini umumlashtirgan holda vazirlik rahbariyatiga olib chiqish.	Sentabr oyida	Sh.Suyunov
24.	Vazirlik faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash.	Oktabr oyida	Sh.Suyunov, J.To'xtayev
25.	Vazirlik xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.	Noyabr oyida	L. Muhammadnazarov, A.Tursunaliyev
26.	Amu-Buxoro ITHB huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini maqsadli o'rganish, natijalarni tahlil qilish.	Noyabr oyida	L. Muhammadnazarov, A.Tursunaliyev
27.	Vazirlik faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	Dekabr oyida	Sh.Suyunov, R.Umarov
28.	Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan vazirlikning faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish.	Dekabr oyida	Sh.Suyunov
29.	Amu-Qashqadaryo ITHB huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini maqsadli o'rganish, natijalarni tahlil qilish.	Dekabr oyida	L. Muhammadnazarov, A.Tursunaliyev
30.	Jamoatchilik kengashining 2026-yildagi faoliyati yakunlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazish.	Dekabr oyida	D.Alikulova